

@Kimyouz7

ADABIYOT 2019-YIL

BAZA

II-QISM

JAVOBI

BILAN

@Kimyouz7

@Kimyouz7

“Ehtimoliy testlar”ning savol-javob varianti

- 1.”RUSTAMXON”dostonida Sultonxon qaysi mamlakatni boshqarar edi?
Javob:OQTOSH mamlakatini.
- 2.”RUSTAMXON”dostonida Sultonxonning nechta xotini bor edi? Javob: 3 ta xotini bo’lgan,Huroyim o’rtanchasi bo’lgan.
- 3.”Dunyoda bir qo’rqan yomon ,bir quvongan yomon. “ iborasi kim tomonidan qaysi dostonda aytilgan? Javob:”RUSTAMXON” dostonida Sultonxon
- 4.”RUSTAMXON” dostonida Sultonxon oldimga suyunchi deb chiqqanni qaysi lavozimga qo’yaman deydi? Javob : Qo’rg’onbiy lavozimiga
- 5.”RUSTAMXON” dostonida Sultonxonga kimlar “Huroyimga Oqtosh elini boshqarishni vaqtincha topshir” deb maslahat berganini aniqlang? Javob : Qozikalonlar
6. Xalq dostonlarining qaysi birida qahramonlardan biri o’z xotiniga :
Men ketgandan so’ng uydan chiqib o’tirma ,
Do’st yig’latib , dushmaningni kuldirma .
deb aytgan edi? Javob:”RUSTAMXON” dostonida Sultonxon
- 7.”RUSTAMXON” dostonida Sultonxonning qancha mahrami bor edi? Javob: 600 ta
- 8.”RUSTAMXON” dostonida Huroyimning kanizagini aniqlang ? Javob : Ximcha
- 9.Momogul mastonning qo’lida qancha maston kampiri bor edi ? Javob : 360 ta
- 10.Quyidagi ta’rifi berilgan personaj xalq dostonlarining qaysi birida uchraydi.
“G’orda yotar edi,xurrakni baland tortar edi,botmon nosvoyni to’rt bo’lib otar edi,ne er yigitlarni ikki pulga sotar edi,yaxshilikni uch pulga olmay qayerda yomonlik bo’lsa,izlab yetar edi” Javob: “Rustamxon” dostonida Momogul maston
- 11.Momogul maston 1 qop tilla evaziga nima ishlar qilishi kerak edi? Javob:Oqtoshni vayron qilishi,Huroyim va o’g’lini o’ldirishi kerak edi.
- 12.”Adashganning oldi yo’l” iborasi qaysi dostondan olingan? Javob: keragasiga boylov”Rustamxon” dostoni
- 13.”Rustamxon” dostonida Rustam onasi bilan qayerda qo’nim topdilar? Javob: Hukumu tog’ida

@Kimyouz7

14. Quyidagi ta'rif kim haqida? "Ajab suratli bir qiz, jamoli kunni xira qilguday, har kim husnini ko'rsa, aqli ketib otdan yiqilib qolguday. Ikki qo'li orqasiga boylangan, sochidan uyning keragasiga boylovli turibdi." Javob "Rustamxon" dostonida Oftoboy ta'rifi

15. "Rustamxon" dostonida uchraydigan Keraga atamasining mos izohini aniqlang?
Javob: Keraga – o'tovning chetanga (To'qima devor) o'xshatib ishlangan devori.

16. Xalq dostonlarining qaysi birida qahramonlardan biri o'z sevgilisiga "Toza gulim" deb sifat bergan? Javob: "Rustamxon" dostonida Rustam

17. "Rustamxon" dostonida Oftoboy tomonidan Rustamga qanday sifat berilgan? Javob: Yo'lbars

18. "Rustamxon" dostonida Oftoboy Rustamga qanday murojaat qilgan? Javob: Begimjon

19. Quyidagi parcha qaysi dostonda uchraydi?

"-Oh ursam to'kilar ko'zimning yoshi, O'limdan qaytarmi, bilgin, mard kishi;

Bundan qo'rqib ketmoq nomardning ishi, O'zga damni, dam dema, Ajdarhodan sira meni kam dema." Javob: "Rustamxon" dostonida

20. "Mard so'zidan, yo'lbars izidan burilmaydi." Iborasi qaysi dostonidan olingan?
Javob: "Rustamxon" dostonidan

21. "Rustamxon" dostonida ajdar qayerdan kelayotganda Rustam bilan uchrashadi? Javob: Charxinko'l

22. "Rustamxon" dostonida Rustam ajdarni nechchi bo'lakka bo'lib tashlaydi? Javob: 41 bo'lakka

23. "Rustamxon" dostonida Rustam Bujulni qancha muddat boshqaradi? Javob: 3 kun

24. Momogul maston qayerda Huroyimni bandi qilib uning qiyofasiga kirgan? Javob: Bahra tog'I, Oqrobotga

25. Momogul mastonni kim o'ldirgan? Javob: Qizil dev

26. Xalq dostonlarining qaysi birida qahramonlardan biri 40 qalandarga qo'shilib, kamxarjligi uchun gadoylik qilgani haqida so'z boradi. Javob: "Rustamxon" dostoni

27. "Rustamxon" dostonida Sultonxon tomonidan qanday sifat berilgan? Javob: Norkalla qo'chqor

@Kimyouz7

28.Lanqa – atamasi qaysi xalq dostonida uchraydi? Javob:”Rustamxon”

29.”Rustamxon” dostonida Sultonxon bo’lib o’tgan voqealarga ikki kundoshi sababchiligini kimlardan biladi? Javob:G’aznavonlardan

30.Ikki kundosh Momogul mastonga g’aznavonlardan qancha tillani olib berib yuboradi? Javob:4 qop tilla

31.”Rustamxon” dostonida quyidagi satrlardan Sultonxon kimga aytgan ?

-Gunohkor ikkovi qo’lim boylanglar

Turmasin,shahardan darrov haydanglar

Kim yomonlik qilsa jazosin ko’rsin,

Hech tirik qolmasin ikkovi o’lsin

Javob:Mirg’azabga aytgan

32.Quyidagi satrlar qaysi dostonidan olingan?

- Omon eson o’g’lim,elga keldi deb,

Yurtimga farzandim ega bo’ldi deb,

Xaloyiqni xabar qilib yig’dirdi.

Qancha so’qim,qancha qo’yni so’yirdi.

Javob:”Rustamxon” dostonidan

33.Xalq o’g’izaki ijodining eng yirik janrlarini aniqlang? Javob:Doston

34.Qahramonlik,ishqiy sarguzasht,fantastik mazmunga ega bo’lgan voqealar bayon qiluvchi asar nima deyiladi? Javob: Doston

35.Qahramonlarning sarguzashtlari,o’zaro munosabatlari va kechinmalari keng ko’lamda tasvirlovchi yirik hajmli she’riy asar nima deyiladi? Javob: Doston

36.Doston turlarini aniqlang? Javob: 1) Qahramonlik dostoni 2)Ishqiy sarguzasht dostoni 3)Tarixiy dostoni

37.Dostonlarni mavzusiga ko’ra moslashtiring? Javob:1)”Rustamxon”va “Alpomish” dostoni – QAHRAMONLIK DOSTONI 2)”G’o’rog’li”,”Ravshan” va “Oshiq g’arib va Shohsanam” – ISHQIY SARGUZASHT DOSTONI

@Kimyouz7

38.O'rxun-Enasoy obidaları qayerdan qanday shaklda topilgan? Javob: O'rxun ,Selenga ,Toli daryolari atrofidan,Shimoliy Mo'gilistondan toshga bitilgan obida shaklida

39.O'rxun – Enasoy bitiklari yana qanday nomlanadi? Javob:Tosh bitiklar

40.Hozirgi kunda qadimgi turkiy manbalarning asl manbaalari topilgan va saqlanadigan joylarni aniqlang? Javob:O'rxun-Enasoy daryolari,Turxan(Sharqiy Turkiston),Mo'g'iliston,Germaniya (Berlin,Marburg,Marburg),Rossiya (Sank-Peterburg,Qizil,Minisunsk),Xitoy (Turfan,Urumchi,Miran suchjoy,Pekin) B.Britaniya (London), Fransiya(Parij),Shvetsiya(Stokgolm), O'zbekiston,Qozog'iston,Qirzig'izistondan.

41."To'nyuquq" bitiktoshi haqidagi ma'lumotlarni aniqlang? Javob: 2 ta ustunga yozilgan bo'lg'in , 160 sm va 170 sm kattalikda.Yelizavetta Klements 1897-yil Shimoliy Mo'g'ilistondan eri Dmitriy Klements bilan birgalikda izlab topgan.Bitiktosh Ulan Batordan 66 km Janubi – Sharqdagi Bain-Sakto manzilida bo'lgan.

42." Tangri shunday degan ekan: Xon berdim.Xoningni qo'yib taslim bo'lding.Taslim bo'lganing uchun tangri "o'l" degan shekilli.Turk xalqi o'ldi , yo'q bo'ldi,tugadi." Ushbu satrlar qaysi asarda uchraydi? Javob:"To'nyuquq" bitiktoshida

43."To'qayda jami 700 kishining borligi,uning bir qismi otliq , bir qismi piyoda ekaligi" haqida qaysi asarda uchraydi? Javob: " To'nyuquq" bitiktoshida

44."To'nyuquq" bitiktoshida 700 kishini birlashtirgan boshlig'I nima deyiladi? Javob: Shad

45. "Birov ori q buqani, semiz buqani tezagidan bilsa,birov bilmas emish" iborasi qaysi asarda uchraydi? Javob: "To'nyuquq" bitiktoshi

46."Bilga To'nyuquq Bo'yla Bag'a Tarxon bilan Eltarish xoqon birlashib , janubda Tabg'achni , Sharqdan Qitanni, Shimolda O'g'uzni ko'plab o'ldirdi.Chug'ay quzni, Qoraqumni manzil qilib edik." Yuqoridagi parcha qaysi asarda uchraydi. Javob: "To'nyuquq" bitiktoshi

47."To'nyuquq"bitiktoshidagi ma'lumotlarni moslashtiring? Javob: Tabg'achga – Qo'ni Sangun, Qitanniga – To'ngra Semni yubordi.

48."To'nyuquq" bitiktoshida Inigak ko'liga kelgan xalqni aniqlang? Javob:To'g'ladan O'g'uz

@Kimyouz7

49. Quyidagi javoblar ichidan to'g'risini aniqlang? 1) Shantung shahrigacha 23 ta shahar taslim bo'ldi. 2) Oq Tarmal hozirgi – Xuakem daryosi. 3) Qirg'iz xalqi uyquda bosib olingan. 4) Boshida dubulg'a bor xalq – So'g'doq .

50. “To'nyuquq” bitiktoshidagi quyidagi atamani ma'nosini aniqlang? Javob: Umay – Qadimgi turklarda onalik timsoli hisoblanadi.

51. O'rxun-Enasoy yodgorligini aniqlang? Javob: Tomson va Radlovdan keyin Malov, Klyashtarnoy, Stebelova, O'rxun, Tekin, Najib Osim, Aydarov o'zbeklardan, Rustamov, Abdurahmonov, Rahimov.

52. Quyidagi ma'lumotlar kim haqidaligini toping? Javob: Yassida tug'ulgan, otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayxlaridan onasi Qorasoch momo” . Javob: A. Yassaviy

53. Ahmad Yassaviyning ustozlarini toping? Javob: Dastlab mutasavvuf olim Arslonbobo qo'lida tarbiyalangan so'ngra Buxoroga borib Yusuf Hamadoniy qo'lida tehsil olgan.

54. Ahmad Yassaviy haqida berilgan ma'lumotlarni to'g'risini belgilang? Javob: “Hikmatlar” asariga 240 ta she'r kiritigan bo'lib xalq orasida “Devoni Hikmat” deb atalgan.

55. Tasavvufning to'rt asosiy bosqichini aniqlang ?

1) Shariat 2) Tariqat 3) Ma'rifat 4) Haqiqat

56. Ahmad Yassaviy fikricha “inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim omil nima ? Javob: Tasavvuf 57. Ahmad Yassaviy she'riyatida o'g'izaki ijod an'analari bilan aloqador holda yuzaga kelgan obrazlarni toping? Javob: Yo'l, Rabot, Karvon, O'q

58. A. Navoiy qaysi asarida A. Yassaviyni “Turkiston mulkining shayx-ul mashoyixi” deb aytgan? Javob: “Nasoyim-ul muhabbat” da

59. A. Navoiy qaysi asarida Atoiyini “Mavlono Atoyi Balxda o'qir edi. Ismoil ota farzandlaridandur, darveshash xushxulq, munbasit (ochiq chehrali) kishi erdi. O'z zamonida she'ri atrok (turk tilida so'zlovchilar orasida) ko'p tarqaldi deb aytgan? Javob: “Majoil-ul Nafois” da

60. “Ul sanamkim”, “Jamoling vasfini qildim chamanda” lutflari bilan boshlanuvchi g'azallar muallifini aniqlang? Javob: Atoiy

61. Uzun sochingdin uzmasmen ko'ngulni,

Oyog'ing qanda bo'lsa, boshim anda.

@Kimyouz7

Atoiy qalamiga mansub ushbu satrlarda qanday badiiy san'at qo'llangan? Javob:Tanosub ,
"Jamoling vasfini qildim chamanda"

62.Atoiy qalamiga mansub "jamoling vasfini qildim chamanda" g'azalida kimlarni talmeh qilganini aniqlang? Javob:Yusuf va Yoqub

63.Atoiyning Yusuf va Yoqubni talmeh sifatida qo'llagan g'azalida "Bayt-ul Hazan" atamasi nima degan ma'noni beradi? Javob:"G'am UYI"

64. Qaysi ijodkorning asarlari "Sodda va Ravonligi" ajralib turadi? Javob:Atoiy

65.A.Navoiy haqida kim"Ko'b va Xo'b yozdi.Olti masnaviysi bor.Yana aruzga bag'ishlab (Mezon ul-Avzon) otliq asar yozdi"deb yozib o'tgan ? Javob:Z.M.Bobur

66.A.Navoiyning qaysi asrida muhabbat tuximi haqida gapiriladi? Javob: "Meni men istagan" g'azali

67.A.Navoiyning qalamiga mansub "Ey sabo" g'azalida berilgan "Zunnor" atamasiga mos javobni aniqlang? Javob: ZUNNOR – but ,sanam,xristian diniga mansub bo'lganlarning beliga bog'lanadigan chilvir,belbog'i.

68. A.Navoiy qalamiga mansub "Ey sabo" g'azalida ko'chma ma'noda qo'llangan "Zulfi zunnor" aslida nimani bildirgan? Javob: Ma'shuqaning soch o'rimlarini

69.A.Navoiy qalamiga mansub "Ey sabo" g'azalida "Suman" so'zi aslida nima ? Javob: Yasmin,oq,sariq rangli xush isli gul.

70.she'ri to'qqiz bayt-u,o'n bir bayt-u,o'n uch bayt

Ki,lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundir.

Yuqoridagi nuqtalar o'rniga mos javobni tanlang? Javob:NAVOIY

71.A.Navoiy qalamiga mansub bo'lgan "G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish", "Ko'z birla qoshing ,qabog'ing yaxshi" satrlari bilan boshlanuvchi asarining janrini toping? Javob:Ruboiy

72.Quyidagi satrlar muallifi va unga mos bo'lgan janrni aniqlang? "Davron meni o'tkardi sari samondin" Javob:Z.M.Bobur Ruboiy

73."Boburnoma"da serjanjal va serg'avg'o,to'polonchi,janjalkash yerlar deb qayerlar tilga olinadi? Javob:Kobul va G'azna

74."Boburnoma"da kimlar Boburga Hirotda qishlash taklfini bergan? Javob:Badiuzzamon,Abulmuhsin va Muzaffar mirzolar

@Kimyouz7

@Kimyouz7

75."Boburnoma"da Boburning qaysi ammabegimlari Sulton Husayn madrasasida yig'ilganlar? Javob: Poyanda Sultonbegim,Xadichabegim,Ofoqbegim va yana Abu Said Mirzoning qizlari

76."Boburnoma"dan olingan quyidagi ma'lumotlarni moslashtiring? Javob:Poyanda Sultonbegim va xadichabegim bilan ta'zim qilib,Ofoqbegim bilan esa ta'zimsiz ko'rishdi.

77."Boburnoma"da Bobur "Bog'I Nav"da 1 kecha tunagandan so'ng, uni qayerga ko'chirishdi? Javob:A.Navoiyning uyiga ko'chirishdi.

78."Boburnoma"da kim Bobur tarabxonada bo'lganda o'zidan yuqoriga olgan edi? Javob:Muzaffar Mirzo

79.Yusuf ali Ko'kaldosh va asil ismi Abduvalid bo'lgan Billuriy qaysi asarda uchraydi? Javob: "Boburnoma"da

80."Boburnoma"da keltirilishicha Alisher Navoiy tomonidan qurilgan imoratlarni o'zaro mosligini toping? Javob: Unsiya – Alisherning uyi,Quddusiya – maqbara-masjid,Ixlosiya va Xalosiya – hammomi, Safoiya va Shifoiya –Shifoxonsi

81. Quyidagi shoirlardan qaysi biri Ashtarxoniy Abdulazizxon va Subxonqullixon hukmronlik qilgan yillarda yashab ijod qilgan? Javob:Turdi Farog'iy

82. Quyidagi ta'rif qaysi ijodkor haqida " U 1681- yil Miyonqol qo'zgonida qatnashgan.Shundan so'ng Xo'jand va O'ratepa hokimi Rahimbiyning panohida bo'ldi.Rahimbiy vafot etgach uning o'g'li Oqbo'tabiy huzurida moddiy qiyinchiliklar girdobida qoldi."? Javob : T.Farog'iy

83.T.Farog'iyning ijodiy me'rosini aniqlang? Jami 18 ta , shundan 5 tasi muxammas,12 tasi g'azal, 1 tasi fard.

84.Qaysi ijodkorning asarlaridan"Shoirning tiyrak va bezovta ruhini, o'tkir qalamning ta'sirchan kuchini ,favqulodda jasoratini ilg'ab olishqiyin emas"? Javob:T.Farog'iy

85.Milliy Adabiyotimiz tarixida satiric-tanqidiy yo'nalishniancha baland cho'qqilarga olib chiqqan ijodkor kim? Javob:T.Farog'iy

86.Javoblar ichidan aynan Turdi Farog'iy hayoti va ijodiga tegishlisini aniqlang? Javob: "Ijodkor o'zi zamondosh bo'lgan jamiyat ilatlarini qattiq tanqid qildi.Bu illatlarni mamlakat va millat fojiasi sifatida talqin qildi.Millatdoshlarini uning oqibatlarini tezroq va to'laroq tasavvur qilishga undadi"

87.Qaysi ijodkor o'zini "Bir siqim Tuproqman" deydi? Javob:Turdi Farog'iy

@Kimyouz7

88. Qaysi ijodkor o'z asarida "Hokimi Dizzax" ni tilga olgan va qaysi janrda o'sha asar yozilganligini aniqlang? Javob: Turdi Farog'iy, Muxammasida
89. Turdi Farog'iyning muxammasida uchraydigan "Fitrat" atamasi nima degan ma'noni anglatadi? Javob: Tug'ma tabiat
90. M. Behbudiy ijodiga oid ma'lumotlarning to'g'risini moslashtiring? Javob: 1) "Padarkush yoxud o'qimagan bolaning holi" asari "TURKISTON MAISHATIDAN OLINGAN IBRATNOMADIR", 2) "Padarkush" 3 parda, 4 manzaradan iboratdir. 3) "Padarkush"- Milliy birinchi fojia hisoblanadi.
91. M. Behbudiy qalamiga mansub "Padarkush" drammasida qatnashuvchilarni aniqlang? Javob: Toshmurod, Xayrulla, Davlat, Nor, Liza, Artun, Tangriqul.
92. M. Behbudiyning "Padarkush" asarida boyning qotili kim edi? Javob: Tangriqul
93. M. Behbudiyning "Padarkush" asarida boyning mirza va mahrami kimligini aniqlang? Javob: Xayrulla
94. M. Behbudiyning "Padarkush" asarida kimlar "Bo'z bolalar" deya aytilgan? Javob: Davlat va Nor
95. M. Behbudiyning "Padarkush" asaridagi qatnashuvchilarning o'zaro moslashtiring? Javob: 1) Liza- rus xotini, qabiha shaklida, 2) Artun- arman mayxonachisi 3) Boybuchcha- boyning xotini.
96. "Padarkush" drammasidagi sahnalarni moslashtiring? Javob: A) 1-sahna Boyning Domla va Ziyoli bilan uchrashuvi bilan boshlanadi. B) 2-sahna mayxona tasviri bilan boshlanadi. C) 3- sahna Boyning yotoqxonasi tasviri bilan boshlanadi.
97. M. Behbudiyning "Padarkush" drammasida Toshmurod nima deb otasini aldaydi va pul oladi? Javob: Tursun akam bilan tomoshaga boraman deydi.
98. M. Behbudiyning "Padarkush" drammasida kim "O'qimoq qarz va ham ilm sababi izzati dunyo va sharofati oxiratdir" deb aytganligini aniqlang? Javob: Domla
99. "Padarkush" drammasida Xayrulla qancha maoshga ishlaydi? Javob: 7 So'm
100. Quyidagi parcha qaysi asardan olingan? "O'qimoq va mulla bo'lmoq uchun pul kerak. Badavlatlarimizning holi bul. Bas, bu ketish ila nauzambilloh, dunyo va oxiratga rasvo bo'lurmiz. O'qimoq barcha musulmonlarga, erkak va yana xotun bo'lsun, farz edi. u qayda qoldi? Oh, voy bizni holimizga!" Javob: "Padarkush" dan Domla aytgan

@Kimyouz7

101."Padarkush"dagi qatnashgan obrazlarning qiladigan odatlari bilan moslashtiring ?
Javob: 1) Boy – Chilim chekadi. 2) Ziyoli – Papiros chekadi. 3) Domla – Nos chekadi.

102. Quyidagi satrlar qaysi asarda uchraydi? "Hozir yangi va boshqa bir zamonadir. Bu zamonag'a ilm va hunarsiz xalqni boyligi, yeri va asbobi kundan kun qo'ldan ketgandek, axloq va obro'vi ham qo'ldan chiqar, hatto dini ham zaif bo'lur. Vaholanki, dini sharifimiz har nav naflilikim o'qimoqni beshikdan mozorgacha bizlarga farz qilgandir. Bu hukm hukmi shariatdir. Biz musulmonlarga, alalxusus, bu zamonda ikki sinf ulamo kerakdir: biri olimi diniy, ikkinchisi olimi zamoniy." Javob: "Padarkush"da Ziyoli aytgan.

103."Padarkush"da kim boyga Hazrat Payg'ambirimiz?" Ilm Xitoyga ham bo'lsa, talab qilingiz", -demadilarmi? Deb aytganligini toping? Javob: ZIYOLI

104."Padarkush" drammasiga oid ma'lumotlarni to'g'rilarni aniqlang? Javob: 1) May qadahlarini – Nor to'ldirgan. 2) Liza haqida birinchi gapni Davlat ochgan. 3) Tangriqulni Davlat "To'taburut" deb chaqirgan. 4) Davlat "Erga navbat – Sherga navbat" deb aytgan.

105."padarkush"da Liza uchun qancha pul kerak edi? Javob: 15 manat, 1 foytun.

106."Bu kunning ertasi bor" iborasi qaysi asrda uchraydi va kim aytganligini aniqlang? Javob: "Padarkush"da Davlat

107."Padarkush"da aytilishicha Tangriqul yoshligida qaysi kasal bilan kasal bo'lgan? Javob: Chechak

108. Qaysi ijodkor o'z yoshligini eslaganda "Biznikiga xalq baxshisi Fozil Yo'ldosh o'g'li, Bobomni ko'rgani tez-tez kelib turardi." -deb aytganligini aniqlang? Javob: H.Olimjon

109. Hamid olimjonning onasini ismini aniqlang? Javob: Komila aya

110. Quyidagi satrlar muallifini aniqlang?

- Men bir qora kunda tug'uldim,

Tug'ildim-u shu on bo'g'ildim.

Javob: H.Olimjon

111. H.Olimjonning qaysi she'rida boshlanma va tugallanma aynan bir xil takrorlanadi? Javob: "O'rik Gullaganda"

112. Berilgan ijodkorlardan qaysi biri "G'azal" nomli g'azal yozgan? Javob: H. Olimjon

113. Quyidagi she'r muallifini va she'r nomini aniqlang?

@Kimyouz7

“Mana senga olam –olam gul,

Etaginga siqqanicha ol.

Bunda tole har narsadan mo’l,

To o’lganingcha shu o’lkada qol.” Javob: H.Olimjonin “ O’rik Gullaganda” she’ri

114. Qur’oni Karim va Hadisi sharif epigrifga olingan asarni aniqlang? Javob: “Qorako’z Majnun” S. Ahmad

115.S. Ahmad qalamiga mansub “Qorako’z Majnun “ Hikoyasining epigrifini aniqlang? Javob: “ Sizlardan qaysi biringiz o’z dinidan qaytsa va shu kofirlicha o’lsa, bas,ana o’shalarning qilgan savobliamallari bekor bo’lur, ular do’zax ahlidurlar va u yerda mangu qolurlar”. (“Baqara” surasi,217-oyat)

116.Hadisi sharifdan olingan quyidagi parcha qaysi asrda uchraydi ? “Jannatga kiradigan o’n nafar hayvondan biri bu “Ashobi kahfning vafodor itidir” (Al-jome al –Kabir) Javob:”Qorako’z Majnun” hikoyasi S.Ahmad

117.”Qorako’z Majnun “ hikoyasidagi qahramonlarni aniqlang ? Javob: Saodat,Turob,Bo’rixon,Qumri.

118.Quyidagi parcha qaysi asrdan olingan ? “Sentabr oyoqlab , suvlar tiniqqan, ariq tubidan bola- baqra tashlab yuborgan piyolami,choynak qopqog’imi,qoshiqmi shundoqqina ko’rinib turibdi. Qirg’oqlar zax tortib, ekin – tekin suv so’ramay qo’rgan palla.” Javob: “Qorako’z Majnun”hikoyasi

119.”Yoshligida uzun sochlarining uchiga kalitni ilib yurgan kampir , qariganda erining frontdan olib kelgan medalini osib qo’rgan” qaysi asar qahramoni haqida gap bormoqda ? Javob: “Qorako’z Majnun” hikoyasi

120.”Onalar shunaqa baxti chopmagan bolasi bilan birga bo’ladi” Yuqoridagi parcha qaysi asarda uchraydi? Javob:”Qorako’z Majnun”hikoyasi

121.S. Ahmadning “Qorako’z Majnun” hikoyasida 20 kunda Bo’rixon daragini topib kelgan Saodat kampirning nevarasini aniqlang? Javob:Anvarjon

122.”Qorako’z Majnun” hikoyasida Bo’rixonning nechta farzandi bore di? Javob:3ta

123.”Uni yomon ko’zdan asrasin ,deb kiyimlariga tumor-u ko’zmunchoqlar taqib qo’yardi.Sultonimga atab kokil qo’ygandi.olti yoshga yetganda uni er-xotin Turkistonga olib borib hazrat Yassaviy maqbarasining shayxiga ataganlarini berib, kokilini

kesdirishgan, qo'y so'yib xudoyi qilishgan edi" yuqoridagi parcha qaysi asarda uchraydi?
Javob: "Qorako'z Majnun" hikoyasi

124."1970-yilning kech kuzida bir musulmon bolasi dindan chiqdi" ushbu parcha qaysi asardan olingan? Javob "Qorako'z Majnun" hikoyasi

125."U o'zga yurtning fuqarosi, o'zga e'tiqodning sig'indisi edi. Tug'ilgan yurtga bo'lgan muhabbat tuyg'usi uni tark qilganiga ko'p yillar bo'lgan. Ona tili qadim-qadim zamonlardayoq unitilib ketgan Shumer tili qatori tumanlar orasida qolib ketgandi."
Yuqoridagi parcha qaysi asardan olinganligini aniqlang? Javob: "Qorako'z Majnun" hikoyasi

126."O'lim haq. Bu jon degani allohning tandagi omonati. Undan qochib qutilib bo'lmaydi. Puf etadi-yu chiqadi, ketadi." Ushbu parcha qaysi asardan olinganligini aniqlang? Javob: "Qorako'z Majnun" hikoyasi

127."Qorako'z Majnun " hikoyasida Saodat kampir "G'assol"ga o'lganimdan keyin nimalarni ber deb Qumriga vasiyat qiladi? Javob: Ziragini va Mahsi- Kovushini

128. Qaysi ijodkor tarjimai holida "Yoshligimda Umur baxshining she'rlarini ko'p eshitganman"-deb xotirlaydi. Javob: A. Oripov

129. Qaysi ijodkor o'z tarjimai holini "Ko'rgan-bilganlarim" deb nomlagan? Javob: A. Oripov

130."Respublika bolalar gazetasi" da birinchi she'ri chiqqan ijodkorni aniqlang? Javob: A. Oripov

131. A. Oripovning ilk she'rini aniqlang? Javob: "Qushcha"

132.- Bas, yetar, cholg'uchi, bas qil sozingni,

Bas, yetar, ko'ksimga urmagin xanjar,

Nahotki dunyoda shuncha g'am bordir...

Agar shu "Munojot" rost bo'lsa agar. Satrlari muallifini aniqlang? Javob: A. Oripov

133. O'z she'rida "Dunyo"ni "Tuynuksiz Qasr" degan shoirmi toping? Javob: A. Oripov

134. Qaysi ijodkor o'z tarjimai holini "Mashaqqatli safar" deb ataydi? Javob:
O. HOSHIMOV

@Kimyouz7

135."Bolaligimni eslasam , iliq yoz kechalari ko'z oldimga keladi..." qaysi asarning bir bobi shu satrlar bilan boshlanadi? Javob "Dunyoning Ishlari" qissasi

136.O'ziga xos avtobiografik (Hasbi-hol) qissani aniqlang? Javob "Dunyoning Ishlari"

137."Xudo ko'ngilga solmaguncha haqiqiy ijodkor qo'liga qalam olmaydi!Haqiqiy asar shunchaki yozilavermaydi,haqiqiy asar farzand kabi tug'iladi!" deb ijodga yuksak baho bergan yozuvchini aniqlang? Javob: O'tkir Hoshimov

138.Qaysi ijodkor "Abulqosim Eshon otamning bobosi bo'lgan,o'z davrining mashhur kishisi bo'lgan"deb aytadi? Javob:O'.Hoshimov

139.Abdulla Qodiriy tahsil olgan madrasa kimning tashabbusi bilan qurilganligini aniqlang? Javob: Abulqosim Eshon

140.O'tkir Hoshimovning ota-onasini aniqlang? Javob : Atoulloxon Hoshimov,Hakima Hoshimova

141.A.Qahhor O'.Hoshimovning qaysi asarini maqtab xat yozganligini aniqlang? Javob: "Cho'l Havosi"

142.O'. Hoshimov qalamiga mansub asarlarning janlari bilan moslashtiring? Javob : "Bahor qaytmaydi","Qalbingga quloq sol","Kvazarlar" qissa,"Inson sadoqati","Vijdon dorisi","To'ylar muborak" sahna asarlari

143.Jek London bilan bog'liq ma'lumotni aniqlang? Javob : Kaliforniya shtatining San-Fransisko shahrida , fermer oilasida tug'ilgan

144."U yoshligida ko'plab kasblar bilan mashg'ul bo'lib,hayotda turli mashaqqatlarni boshidan kechirdi." Ushbu satrlar qaysi ijodkor hayoti bilan bog'liqligini aniqlang? Javob:Jek London

145.Qaysi ijodkor yaratgan qahramonlari har qanday holatda ham odamiylik,insoniylikka xiyonat qilmasligi bilan ajralib turadi ? Javob: jek London

146."Sutdek oppoq suv " Metaforasi qaysi asarda uchraydi ? Javob: "Hayotga Muhabbat"

147."Hayotga muhabbat"da qahramonlardan biri o'zidagi 67 dona gugurtni qayerlarga bo'lib qo'yadi? Javob: 1)hamyoniga 2)shapkasining astariga 3)ko'kragiga

148."U juda charchagan , biroz orom olgisi,yotib uxlagisi kelardi,lekin "Kichik og'ochlar o'lkasi"ga yetib olish orzusi, undan ham zo'rroq bo'lgan ochlik azobi unga tinchlik bermasdi" ushbu parcha qaysi asrda uchraydi? Javob: ""Hayotga muhabbat"

@Kimyouz7

149. Qaysi asarda “ Kappirmayn daryosi”, “ Makkenzi daryosi”, “Gudzon ko’rfazi” kabi geografik jouylar tilga olingan? Javob: “Hayotga muhabbat”

150. “Bedford” kemasidagi kit ovlovchilar qaysi asarda uchraydi? Javob :Hayotga muhabbat”

151. Kaliforniya apelsinlari qaysi asarda uchraydi? Javob: “Hayotga muhabbat”

152. “Qomuschi olim, tolmas sayyoh sifatida mashhur bo’lib, u turkey til grammatikasini birinchi bo’lib ishlab chiqdi. Turkcha , arabcha lug’atning birinchi nusxasi ham uning nomi bilan bog’liq” Yuqoridagi ma’lumotlar qaysi ijodkor to’g’risida ? Javob: M. Qoshg’ariy

153. M. Qoshg’ariy “Devoni Lug’atit – turk” asarida turk tilidagi so’zlar ma’nosini qaysi tilda izohlab berdi? Javob: Arabchada

154. Qaysi ijodkor o’z asari xususida “Men bu asarni maxsus alifbe tartibida yozdim” deb aytganligini aniqlang? Javob: M. Qoshg’ariy

155. “Devoni lug’atit –turk” asari kimga bag’ishlab yozilgan edi? Javob: Al Muqtadoga

156. “Yigitlarni ishlatib, Daraxt mevalarini qoqitraylik. Qulon, kiyiklarni ovlating, bayram qilib ovunaylik.” Ushbu parcha kimning qaysi asarida uchraydi? Javob: M. Qoshg’ariy “Devoni lug’atit-turk”

157. “Bulnar meni ulas ko’z, Qara mengiz , qizil juz. Andin tamar tukal tuz, Bulna jana ol qochar.” Ushbu satrlar qaysi asardan olinganligini aniqlang? Javob: “Devoni lug’atit-turk”

158. “Alp Er To’nga” marsiyasi qaysi asr orqali bizgacha yetib keldi? Javob: “Devoni Lug’atit-turk”

159. Xorazmning Raboti o’g’uzida tug’ulgan adibni aniqlang? Javob: N. Rabg’uziy

160. “Oz ozuqli ko’p yozuqli asar”ni aniqlang? Javob; “Qissas ar-Rabg’uziy”

161. “Yigitlarning arig’i, ulu otli, qutli zotli, ezgu xulqli, islom yoriliq , mo’g’il sanili, musulmon dinli, odamiylar inonchi, mo’minlar quvonchi, himmati adiz aqlitengsiz beg” deb ta’rifalangan beg kim ? Javob: N. To’qbug’a

162. “Uzum hikoyati”da shayton uzumni 3 narsaning suvi bilan sug’oradi. Javoblar orasidan nimalar bilan sug’organligini toping? Javob: Tulki, Sher, To’ng’iz qoni birla sug’organ

163. “Qisas ar-Rabg’uziy”da aytilishicha nimalar bo’lsa uyingizda farishtalar kam bo’lmaydi? Javob: Janjabil va Sirka

@Kimyouz7

164."Qisas ar-Rabg'uziy" ning "Uzum" hikoyatida nomi uchraydigan payg'ambarni aniqlang ? Javob: Nuh alayhissalom

165."Qisas ar- Rabg'uziy"ning "Uzum" hikoyatida Nuh alayhissalom uzumni zanjabil bilan sug'organdan so'ng , undan nima paydo bo'lganini aniqlang? Javob: Shinni

166."Qisas ar-Rabg'uziy" ning "Uzum" hikoyatida Nuh alayhissalom uzumni sarsabil bilan sug'organda so'ng , undan nima paydo bo'lganini aniqlang? Javob: Sirka

167. "Qisa ar-Rabg'uziy"ning "Ilon va Qarlug'och" hikoyatida Nuh alayhissalomning kemasida qaysi uch hayvon yo'q edi? Javob : Mushuk,Sichqon,Qo'ng'iz

168."Qisa ar-Rabg'uziy"ning " Ilon va Qarlug'och" hikoyatida mushuk qanday paydo bo'lganligini keltirilgan javoblar ichidan to'g'risini aniqlang ? Javob: Nuh alayhissalom yo'lbarsni peshonasini silagandan so'ng burnidan mushuk tushdi

169.Nuh alayhissalom kemasidagi sichqon teshgan teshikni ilon yopish uchun , payg'ambarga qanday shart qo'yganligini mos javoblar ichidan ajratib oling? Javob: - "Dunyoda nimani go'shti shirin bo'lsa , shuni bersangiz,"-deb shart qo'ygan

170."Qisas ar-Rabg'uziy" da hikoya qilinishicha Nuh alayhissalom kemasi qancha muddat suvda suzgan?

Javob: 6 oy davomida

171."Ilon va Qarlug'och" hikoyatida "Dunyoda nimani go'shti totlig' ekan"ligini tekshirish vazifasi qaysi hasharotning zimmasiga yuklandi? Javob: Ori

172."Ilon va Qarlug'och" hikoyatida aytilishicha, "Dunyodagi eng totlig' go'sht" nimaning g'oshti hisoblanadi ? Javob: Odamning go'shti

173."Ilon va Qarlug'och" hikoyatida aytilishicha,orining tilini qaysi qush uzib olib , odamzodni halokatdan saqlab qolgan? Javob : Qarlug'och

174. "Ilon va Qarlug'och" hikoyatida aytilishicha, Nuh alayhissalom zamonidan boshlab , ilon topsa baqa yeydi.Agar baqani ham topmasa nima tanovvul qiladi? Javob: Tuproq

175."Sulaymon va Chumoli" hikoyatida berilgan chumolining ismini aniqlang? Javob: Manzara

176. N. Rabg'uziy ijodiga oid asarga tegishli ma'lumotni aniqlang? Javob "- Man alarning kattasidirman.Ulug'lar , raiyasiga base mehribon bo'lur.Balog'a ulug'lar o'zlarini ro'baro' qilib,kichiklarni xalos qilsa yaxshidir"

@Kimyouz7

177. "Sulaymon va Chumoli" hikoyatida uchraydigan ma'lumotni aniqlang? Javob: "Yelning vujudi bo'lmas, hamma ishlari foniydur. Ani mingancha ma'rifat markabini minganingizda erdi, ko'z ochib yumgancha arshi a'loga borar edingiz"

178. "Xazon yaprog'i yang'lig' gul yuzing hajrida sarg'ardim..." deb boshlanuvchi g'azal muallifini aniqlang? Javob: Z.M. Bobur

179. Quyidagi satrlar muallifini aniqlang?

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?!

Ibrohimdan qolgan ul eski do'konni na qilay?! Javob: B. Mashrab

180. "Lomakon" so'zining asl ma'nosini aniqlang? Javob: Makonsizlik

181. Dilshodi Barno maktabida tahsil olgan ijodkorni aniqlang? Javob: Anbar Otin

182. Berilgan ijodkorlardan qaysi biri Uvaysiyning jiyani bo'lgan? Javob: Anbar Otin

183. Quyidagi satrlar muallifini aniqlang?

Otam – Farmonqul Marg'iloniy,

Onam – Ashurbibi Qo'qoniy. Javob : Anbar Otin

184. Alar belboqchi – bo'zchi erdi kasbi,

Hamisha makkayidan erdi noni,

Ki "Bo'zchi belboqqa yolchimas doim",

Yana juft bo'lmas edi choponi. Berilgan javoblar ichidan Anbar Otin qalamiga mansub to'rtlikni aniqlang?

185. Anbar Otin va Zohidxo'janing to'rt farzandlarini aniqlang? Javob : Mo'minxo'ja, Bibixon, Usmonxo'ja, Ominaxon (Yoshligida vafot etgan)

186. "Qarolar Falsafasi"ning nechinchi fasli "Farqi qarolar" taqdiriga bag'ishlanadi? Javob: ikkinchi fasl

187. Berilgan asarlardan qaysi birida "Aflotun va Arastu, Xizr ila Ilyos, Iskandar-u Doro, Luqmon va Sulaymon, Ibn Sino va Ulug'bek, Jomiy, Sa'diy, Navoiy, Firdavsiy, Bedil va Xayyom, Nodira va Uvaysiy" nomlari tilga olingan? Javob: "Qarolar Falsafasi"

@Kimyouz7

188."Qarolar Falsafasi"ning nechinchi fasli "Baxti qarolar" taqdiriga bag'ishlanadi?

Javob: uchinchi fasl

190."Farhod shahzodalikdan ishq gadosi bo'lishni afzal bilib, o'z ma'shuqasining orzusini ro'yobga chiqarmoq uchun qoya toshlarni, dfaryolarni to'sib, sahroni obod etish uchun mehnat va mashaqqatga giriftor bo'ldi." Yuqoridagi parcha qaysi asardan olinganligini aniqlang? Javob: "Qarolar Falsafasi"

194. Anbar Otin qalamiga mansub "Qarolar Falsafasi" asarining to'rtinchi faslida ijodkor nima haqida so'z yuritadi? Javob: Qaro zulmat haqida

195.Quyidagi parcha qaysi asrdan olingan? "Zolim aqlining yo'qligidan bexabar o'zini, shubhasiz, aqlli va dono hisoblab, har ishni qilishga fikr kelsa, o'sha ishni qilish fikriga kelsa, o'sha ishni maqbul va ma'qul va xaloyiq uchun, majburiy qilar, u rejasini amalga oshiradi,...ijrosiga farmon beradi.O'sha farmon bergan mashaqqati el boshiga zulmdirki,O'sha zulm soyasi "Zulmat " deyilar..."

Javob: "Qarolar Falsafasi

196."Cho'lponning ulug'vorligi shundaki, u XX asr o'zbek adabiyotini yangi bir pog'anaga ko'tarib, o'zbek adabiy tilining shakllanishi va ravnaq topishiga ulkan hissa qo'shdi. Xalqda Vatan,Millat, Istiqlol teran ma'no kasb etishiga ham mislsiz darajada katta ta'sir ko'rsatdi.O'zga so'zlar bilan aytganda, u xalqda Hurriyat tuyg'usini uyg'otdi,uning ko'zidagi g'aflat pardasiniolib tashladi, unda Vatanga muhabbat, Kelajakka ishonch hissini tarbiyaladi.Uning fuqarolik jasorati shundandir." Cho'lpon haqidagi ta'riflarni kim aytganligiini aniqlang ? Javob: Naim Karimov

197."Inson " Qasidani qaysi ijodkor yozganligini aniqlang? Javob: E.Vohidov

198.Quyidagi satrlar kimning qalamiga oidligini aniqlang?

Yaxshidir achchiq haqiqat, Lek shirin yolg'on yomon,

Ul shirin yolg'onga mendek, Aldanib qolg'on yomon. Javob:E. Vohidov

199."Ruhlar Isyoni"da nomi tilga olingan otashin Bengal shoirini aniqlang? Javob: Nazrul Islom

200."Ruhlar Isyoni" dostonining epigrifini aniqlang? Javob: "Tug'ulgansan ozod, mudom ozod bo'lib qol"

IZOH: Hurmatli abituriyentlar! Birgina ona tili va adabiyot fanidan kirish imtihonlarida tushadigan testlarni tuzib chiqish ustida 100 ga yaqin o'qituvchi va professorlar yil

@Kimyouz7

@Kimyouz7

boshidan beri ishlamoqda.2019-2020 o'quv yili kirish imtihonlarida abituriyentlarga mustaqil o'qish uchun 10 ta badiiy asar tavsiya etildi.Kirish imtihonlarida ushbu badiiy asarlardan ham testalar tushadi. Shuning uchun sizlarga badiiy asarlarni o'qib chiqishni tavsiya qilaman.Kamida ikkita savol badiiy asardan tushishi kutilmoqda.Quyidagi asarlarni to'liq o'qib chiqing!

- “Mirzo Ulug’bek” drammasi - Maqsud Shayxzoda
- “Ruhlar isyoni” dostoni – Erkin Vohidov
- “Abulfayzxon”drammasi - Abdurauf Fitrat
- “Sohibqiron” drammasi – Abdulla Oripov
- “Dunyoning ishlari” qissasi – O’tkir Hoshimov
- “O’tkan kunlar” roman – Abdulla Qodiriy
- “Kecha va kunduz” roman – Cho’lpon
- “Yulduzlar mangu yonadi” – Tog’ay Murod
- “Yulduzli tunlar” – Pirmqul Qodirov
- “Shum bola” – G’afur G’ulom

YUQORIDA NOMLARI SANAB O’TILGAN ASARLARNI ALBATTA O’QING!!!

Quyida 2019-2020 o'quv yili kirish imtihonlari uchun badiiy adabiyotlardan shakllantirilgan testlardan namuna bilan tarnishing ? Badiiy adabiyotlardan tuzilgan testlardan namuna.Ushbu testlar muhokamadan o'tgan, shu yil tushishi 100% aniq.

1. Cho’lponning “Kecha va kunduz” romani qahramonlari to’liq berilgan javoblarni aniqlang?
A)Zaynab,Saida,Akbarali,Miryoqub
B)Zebi,Miryoqub,Noib To’ra,Akbarali, Razzoq so’fi
C)Zebi,Ergash,Safarqul,Sultonxon
D)Poshshaxon,Zebi,Ra’no,Nigoroyim
2. “Kecha va kunduz”romanida qotillikdan so’ng issiz yo’qolgan qahramon kim edi?
A)Zebi
B)Qurvonbibi
C)Miryoqub
D)Razzoq so’fi
3. “Kecha va kunduz “ romanida qaysi qahramon;”Podsholik hamma vaqt yurtning obro’li odamlarini himoya qiladi.Obro’ davlat bilan topiladi “,deydi?

- A)Zunnun
B)Akbarali
C)Miryoqub
D)Noib To'ra
4. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanida qaysi obrazda mustamlaka o'lkaga rahbarlik qilib, uni tarixning boshi berk ko'chasiga olib kelgan kishilar timsolini yaratgan?
A)Zunnunbek
B)Akbarali
C)Miryoqub
D)Sharafiddin Xo'jayev
5. "Kecha va kunduz" romanida Akbarali mingboshi kimning hiylasidan o'ldi?
A)Umaraliboy B)Poshshaxon
C)Zebi D)Sultonxon
6. Cho'lponning qaysi qahramonini "Tasodifning to'rt chaqaga arzimagan bu qurbonini, zamonning zo'r qahramoni darajasiga ko'tarib yuboradilar" deya ta'riflangan?
A)Zunnunbek
B)Akbarali mingboshi
C)Razzoq so'fi
D)Miryoqub
7. "Kecha va Kunduz" romanida "Puldan, xotindan, aroqdan boshqa hech narsa qiziqirmaydigan", "odam qiyofasidagi hayvon" deya ta'riflangan qahramon nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A)Eshon
B)Akbarali mingboshi
C)Miryoqub
D) Noib To'ra
8. "Kecha va kunduz" romanida "Shamolning qaysi tomonga esishiga qarab ish tutadigan" qahramon qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A)Eshon
B)Miryoqub
C)Akbarali mingboshi
D)Noyib To'ra
- "Kecha va kunduz" romanida "Ko'rgazmaga qo'yilgan antiqa maxluq", "Xotini va qizining oldida tishining oqini ko'rsatmaydigan" qahramon nomi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Akbarali mingboshi
B) Miryoqub
C) Razzoq so'fi
D) Eshon
9. "Kecha va Kunduz " romanida" umrida peshonasi sajda ko'rmagan", " Buzuq yuradigan, betavfiq odam" Deya ta'kidlangan qahramon qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
A) Miryoqub
B) Akbarali mingboshi
C) Zunnun
D) Noib To'ra
10. "...Zebi sekingina bo'ynini cho'zib, gapga quloq soldi" U faqat Qumrining so'zini "Bittasi o'zimizning aravakash" degan so'ngi so'zini eshitib qoldi. "Kecha va kunduz" asaridagi bu aravakash kim edi?
A) O'lmasjon
B) Mamatardi
C) Xolmatjon
D) Zununbek
11. "Kecha va kunduz" romanida qaysi qahramon "Bir o'g'iz gapini silliq va yoqimli qilib gapira olmaydigan soda va to'ng odam", Xudo davlatni ikki qo'llab uzatsa-da, farzand to'g'g'risida biroz o'ksitib qo'ygan kishi sifatida ko'rsatiladi?
A) Hokim To'ra
B) Zunnun
C) Akbarali mingboshi
D) Noib To'ra
12. "Kecha va kunduz " romanida Zebining ko'ngil qo'ygan kishisi kim edi?
A) Akbarali
B) O'lmasjon
C) Hakimjon
D) Miryoqub
13. "Kecha va kunduz " romanida jadidlar tomonidan haftada ikki marta zo'rg'a chiqadigan gazetani topib kelib keyin afsus chekkan qahramon kim edi?
A) Xolmat
B) Ummatali
C) Mirzabobo

D) Hakimjon

14. "O'tkan kunlar" romanida yasama xatlarni uyushtirgan salbiy obrazni aniqlang?

- A) Hasanali B) Sodiq
C) Homid D) Mutal

15. "O'tkan kunlar" romanidagi ijobiy qahramonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang?

- A) Otabek, Azizbek, Yusufbek hoji, Sodiq, Kumush
B) Yusufbek hoji, O'zbek oyim, Zaynab, Xushro'y, Homid
C) Mirzakarim qutidor, Oftob oyim, Kumush, Jannat, Homid
D) Yusufbek hoji, Rahmat, Otabek, Ziyo shohichi, Kumush

16. "O'tkan kunlar" romanida "Ota-onani haqsiz tashlab qo'ymaslik va ota-onaga orzusiga ham haq berish" kabi masalani Otabekka kim tushintirgan edi?

- A) Hasanali
B) Kumushbibi
C) O'zbek oyim
D) Yusufbek hoji

17. Qaysi asarda "Abadiyat haqida rivoyat", "Jaholat haqida rivoyat", "Oliy ruhlar haqida rivoyat" berilgan va ular qaysi qahramon bilan bog'liq?

- A) "Abulfayzxon" drammasida - Abulfayzxon
B) "O'tkan kunlar" da - Otabek
C) "Ruhlar isyoni" da - Nazrul Islom
D) "Sohibqiron" da - Amir Temur

18. "Mirzo Ulug'bek" fojiasidagi tarixiy shaxslar to'g'ri qayd etilgan javoblarni aniqlang?

- A) Mirzo Ulug'bek, Sakkokiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Otamurod
B) Feruza, Abdulatif, Ali Qushchi, Mirzo Ulug'bek, Xo'ja Ahror
C) Mirzo Ulug'bek, Sakkokiy, Abbos, Shayxulislom Burxoniddin
D) Xo'ja Ahror, Ali Qushchi, Piri Zindoniy, Abdulatif

19. "Ruhlar isyoni" dostoning "Shoir qalbi" bo'limida iste'dodning tabiatini, asosini belgilovchi xususiyat qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) Hayotni sevish
B) Isyon
C) Hayotni obrazli tasvirlash
D) Muhabbat, Hijron

20. "Ruhlar Isyoni" dostoning "Muqaddima" qismida shoir chorasiz dard deb nimani aytgan?

- A) Istibdodni
- B) Iste'dodni
- C) Yplg'izlikni
- D) Ayriliq, Hijronni

21. "Sohibqiron" drammasida "Niyyat qancha jozibali bo'lsa ham, Temur, Qilich bilan niyyat hosil bo'lmog'I gumon" degan so'zlar qaysi personajga tegishli?

- A) Alouddin
- B) Shayxulislom
- C) Bibixonim
- D) Yassaviy

22. "Pirimqul Qodirov qalamiga mansub" "Yulduzli tunlar" romanida Boburning butun mamlakatda may ichishni man etuvchi amri haqida "bizga ma'qul kelmadi" deb munosabat bildirgan qahramon kim edi?

- A) Ismoil Saffaviyning elchisi
- B) SHoh Taxmaspning elchisi
- C) SHayboniyxonning elchisi
- D) Ko'chkinchixonning elchisi

23. "Mirzo Ulug'ug'bek" drammasida quyidagi satrlarni kim tilga olgan?
"Bilsam bildim, bilmam bildim, bilmasam bilmam.

Bilganim shu; haq barhaqdir, bilmaganimchi;
Haq nohaqdir, nohaq haqdir, haqiqat yo'qdir.
Haqu nohaq, nohaqu haq... Bay-bay-bay... boy..."

- A) Umar Xayyom
- B) Bedil
- C) Bobo Kayfiy
- D) J. Rumi

24. "Dunyoning ishlari" qissasida kimning uyiga bolalar tut pishdi deganicha tez-tez qatnab qoladilar?

- A) Ermon buva B) Jo'raboshi
- C) Orif D) Qosim

25. Qaysi asarda "zo'rdan zo'r chiqsa oyog'I tipir-tipir" degan maqol uchraydi?

- A) "Yulduzlar mangu yonadi"
- B) "Shum bola"
- C) "Dunyoning Ishlari"

@Kimyouz7

D) "Ruhlar isyoni"

OMAD YOR BO'LSIN HURMATLI ABITURIYENT !!!

© **DavlatTestMarkazi**

ADABIYOT 2019 BAZA II-QISM

@Kimyouz7